

TA'LIM MUASSASALARIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nosirov Shavkat Shuxratovich

*Samarqand viloyat IIB NTB xodimi,
mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya: *Maqolada ta'lim muassasalari uchun psixologik kadrlar tayyorlashning ijtimoiy mohiyati va psixologik xizmatni yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishda psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Psixologik xizmat, ta'lim muassasasi, kompetensiya, psixolog, etikaviy tamoyillar, modernizatsiya, Psixologik ta'lim xizmatlari, ta'lim ne'matlari, ta'lim dasturlari, tekin o'qitish, bevosita Psixologik ta'lim xizmatlari, bilvosita Psixologik ta'lim xizmatlari.*

Аннотация: *В статье рассматривается социальная сущность подготовки психологических кадров и вопросы дальнейшего развития психологической службы. Также в данной статье анализируются вопросы формирования профессиональной компетентности психологов, оказывающих психологические услуги в образовательных учреждениях.*

Ключевые слова: *Психологическая служба, образовательное учреждение, компетентность, психолог, этические принципы, модернизация, Психологические образовательные услуги, образовательные льготы, образовательные программы, бесплатное обучение, прямые Психологические образовательные услуги, косвенные Психологические образовательные услуги.*

Abstract: *The article examines the social essence of training psychological personnel and issues of further development of psychological services. This article also analyzes the issues of developing the professional competence of psychologists providing psychological services in educational institutions.*

Key words: *Psychological service, educational institution, competence, psychologist, ethical principles, modernization, Psychological educational services, educational benefits, educational programs, free training, direct psychological educational services, indirect psychological educational services.*

Kirish

Ijtimoiy psixologiya - kishilarning ijtimoiy guruhlarga birlashishini, guruhiy tavsifni, shaxsning ruhiy faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiy psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy o'rnatilishini kabilarni tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Avvallari ijtimoiy psixologiyada voqeiylik falsafiy nuqtai nazardan o'rganilib kelingan, lekin shaxs, guruh, jamoa munosabatlari qamrab olinmagan. Ijtimoiy psixologiya faniga umumiy

psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, etiologiya, kriminologiya, falsafa kabi fanlar asos bo‘lib xizmat qilgan.

Psixologik xizmat xodimlari barcha muammolarni hal qilishda bolani har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga va uning qishlariga tayanadilar. Amaliyotchi psixolog o‘z faoliyatini pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqada amalga oshiradilar. Psixologik xizmat o‘z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan, bola tarbiyasida yordam ko‘rsatuvchi jamoachilik xodimlari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o‘zaro to‘ldirishi asosida quriladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi-shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti, to‘laqonli psixologik taraqqiyotni ta‘minlovchi qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Bilim kishilarning ijtimoiy mehnati va fikriy faoliyatining mahsuli bo‘lib, u amaliy ravishda o‘zgarayotgan olamining ob‘ektiv, qonuniyatli aloqalarini qayta hosil qilishdan iborat. Hozirgi davrda bilimlar etakchi iqtisodiy resurs sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida beqiyos o‘rin egallaydi. Bilimlarni amaliyotga qo‘llanilishi eng avvalo ta‘lim sohasiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan ularni «ta‘lim ne‘matlari» deb yuritiladi va ta‘lim tizimidagi ehtiyojlar ular orqali qondiriladi. «Ta‘lim ne‘matlari» insonlarning ta‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatining o‘ziga xos mahsuli sifatidagi iqtisodiy ne‘matdir.

Har qanday ne‘mat, shu jumladan «ta‘lim ne‘mati» insonlarning ehtiyojlarini qondirish xususiyatiga ega. «Ta‘lim ne‘matlari» alohida inson, jamiyatning bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Ikkinchi tarafdin esa ularni yaratish harajatni talab etadi.

Ehtiyojlarni qondira olishi ta‘lim ne‘matining nafliligini, uni yaratish uchun harajatlar esa ta‘lim ne‘matining resurs sig‘imkorligini tashkil etadi. Demak, ta‘lim ne‘mati naflilik va resurs sig‘imkorligi belgilariga ega. Ta‘lim ne‘mati deganda aynan ma‘lum hajmdagi bilim tushuniladi. Chunki, ta‘lim majmuasi faoliyatining natijasi yangi hajmdagi bilimlardir. Ular ta‘lim tizimining mahsulidir.

Har qanday jamiyatning ravnaqi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligini uning fuqarolarining ijodiy-aqliy salohiyatining yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Bu muhitni yaratish esa, albatta ta‘lim sohasining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifani hal etish ta‘limning dastlabki bosqichidan amalga oshirishni taqozo etadi.

Shu jumladan psixologlar ham ijtimoiy muhitda o‘z harakatlarini olib borishlarini tushunishadi. Ular bilishadiki, insonlar hayoti va ularning shaxsiyati avlodlar bilan shaxsiy va jamoaviy tarzida bog‘langan. Inson tabiati va ijtimoiy muhiti orasida ikki tomonlama aloqa munosabati mavjud. O‘quvchi shaxsi kamol topishini ta‘minlash ta‘limiy materiallarni faol tarzda o‘zlashtirish masalasiga urg‘u berish lozimligini taqozo etmoqda. Bu o‘z navbatida ta‘lim jarayonini ta‘minlashga ko‘maklashuvchi mutaxassislarning funksional roliga talab oshib borilayotganligini ko‘rsatmoqda. Ta‘lim jarayonini ta‘minlashga ko‘maklashuvchi mutaxassislar deganda, pedagog, o‘quvchilar va ularning ota-onalarining kasbiy-pedagogik, individual-shaxsiy mazmunlarga ega bo‘lgan muammolarini ilmiy metodikalar yordamida

o‘rganib, mutaxassis sifatida taklif va tavsiyalarni beribgina qolmasdan, aniqlangan nuqsonning psixologik korreksiyasini amalga oshirish uchun faoliyat yurituvchi psixolog, defektolog va logopedlarni tushunish lozim. Garchi ular faoliyatining maqsadi va shakli bir-biridan farqlansada, ammo faoliyat ob’ekti o‘quvchi shaxsi hisoblanadi. Ular faoliyati davomida o‘quvchi shaxsini o‘rganib, maktab ta’limining amaliyotiga psixologik bilimlarni kiritib, pedagog tomonidan o‘quvchi shaxsining ichki dunyosini chuqur bilish uchun amaliy yordam ko‘rsatadilar. Bu esa o‘quvchilarga qay darajada psixologik xizmat ko‘rsatayotganligimizga bogliq bo‘ladi. Psixologik xizmat deganda biz psixologik yordam olish, birinchidan, ota-onalar umumiy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanmish psixologik madaniyatga, ikkinchidan, pedagogning (sinf rahbarining) o‘quvchi shaxsiga bo‘lgan munosabatiga, uchinchidan, maktab sharoitida psixologik yordam ko‘rsatishning talab darajasida yo‘lga qo‘yilganligini tushunamiz.

Psixologik yordam ko‘rsatish amaliyotida qo‘llaniladigan uslublar sifatida psixologik trening (nazariy jihatdan psixologik treninglar shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, o‘rgatuvchi kabi turlarga ajratiladi), erkin assotsiatsiyalar, yo‘naltiruvchi intervyu, videoyozuvlar tahlili, audio muloqot, dildan suhbat, yaxshi ko‘rgan jonzot, chalkashlashtirish, relaksatsiya, hissiy kechinmalarni jonlashtirish, ijtimoiy rolni mustahkamlash, tasavvur etish, psixodrama, psixologik modellashtirish, jismoniy faollik, art-terapiya kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dunyoning rivojlangan etakchi mamlakatlarida maktab psixologik xizmati 2 asrdan oshiq tarixga ega. Xususan, psixologik xizmat AQSHda 1800-yillardan, Fransiyada 1894 yildan, ko‘pchilik Sharqiy Evropa mamlakatlari-da XX asr o‘rtalaridan boshlab faoliyat ko‘rsata boshlagan.

AQSH maktablarida amaliyotchi psixolog (counselor)larga maxsus komissiya tomonidan imtihondan o‘tkazgan holda sertifikat beriladi. Har bir psixolog 250–300 o‘quvchini qamrab olishi belgilab qo‘yilgan, amalda esa 500 va undan ortiq o‘quvchilarga, ba’zida bir necha maktablar-ga bitta mutaxassis xizmat ko‘rsatadi. Maktab psixologining ish vaqti 6 soat (amalda 8 soat), ko‘pgina hollarda ishdan so‘ng ota-onalar, tarbiyachilar bilan ishlashga to‘g‘ri keladi. Malaka oshirish esa ta’lim tizimi tomonidan uyushtiriladigan konferensiyalar, maxsus treninglar vositasida amalga oshiriladi. Maktab psixologlari uchun tasdiqlangan dastur asosida yuqori sinflarda maxsus dars soat-lari belgilangan. Masalan, eng muhim dasturlardan biri – “Shaxsni rivojlantirish” (Character Education) dasturining maqsadi bolalarda hurmat, mas’uliyat, javobgarlik, o‘zi haqida va boshqalar haqida qayg‘urish, hamkorlikda faoliyat yuritish kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan[1].

Rus psixologi T.V.Zayseva o‘z asarlarida ta’kidlashicha, psixologik trening «madaniy qurol» sifatida o‘quvchining rivojlanishini ta’minlash uchun funksional ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda psixologik xizmat 10 yildan oshiq tarixga, tajribaga ega. 1989 yilda Nizomiy nomli TDPUda amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi.

2002 yil 1 avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat to‘g‘risida”gi muvaqqat Nizom tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining “Umumta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’qitish bilan qamrab olishni ta’minlash bo’yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 2010 yil 7 iyuldagi 109-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimidagi muassasalarda Psixologik xizmat to’g’risidagi Nizom tasdiqlandi. Bugungi kunda amaliyotchi psixologlar faoliyatini me’yoriy-huquqiy hamda uslubiy ta’minlash maqsadida qator ilmiy-metodik adabiyotlar, uslubiy qo’llanmalar va uslubiy tavsiyalar chop etilgan.

Tahlil va natijalar. Psixologlar jamiyatda ijtimoiy yordam ko’rsatadilar va jamiyat a’zolariga shaxsiy xizmat ko’rsatadilar. Ular o’z ishlarida etika tamoyillariga amal qilishi, jamiyatni mustahkamlashga o’z hissasini qo’shish va bu bilan barcha insonlarning hayot tarzini yaxshilashini anglashadi. Bizning olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko’ra ta’lim tizimi psixologlari etika tamoyillarining quyidagi maqsad va vazifalarini o’zlarida mukammal mujassamlashtirgan bo’lishlari kerak:

1. O’zlarining axloqiy va etik jihatdan muhimligini baholash.
2. O’zlarining etika tamoyillarini rivojlantirishda yo’l-yo’riq ko’rsatuvchi namuna sifatida ishlatish.
3. Etika haqidagi global fikrni, shuningdek mahalliy talablar va qadriyatlarga mos bo’lgan harakatlarni qo’llabquvvatlash;
4. Etika tushunchasini targ’ib va tashviq qilish.

Ta’lim tizimi psixologlari etika tamoyillari inson qadr-qimmatini ulug’lashga asoslangan etika tamoyillarini jamlaydi. U adolat, odamgarchilik va axloq qoidalari keng tarqalgan yaxshiroq dunyo qurishga yordam berishda psixologiya hamjamiyatining rolini yanada oshiradi. Har bir tamoyil tavsifi o’sha tamoyillarga tegishli bo’lgan qadriyatlar ro’yxati bilan mutanosib. Bu qadriyatlar ro’yxati har bir etika tamoyillarini ko’tarishda qimmatli bo’lgan etika tushunchalarini ajratib ko’rsatadi. Bu tamoyillar va qadriyatlar hujjati maxsus standartlar rivojlanishini bajarishda turli xil madaniyatlararo farqlanadi va muhimligini ta’minlash uchun mahalliy va hududiy tarzda ijro qilinishi kerak, ya’ni bu mahalliy va hududiy madaniyat, urf-odat va qonun-qoidalarga mos bo’lishi kerak.

Ta’lim tizimi psixologlarining etika tamoyillari 2008-yil 22-iyulda Berlin Xalqaro psixologik tadqiqotlar ittifoqi assemblyasida qabul qilingan bo’lib, 26-iyulda esa Berlin Xalqaro psixologlar assotsiatsiyasi direktorlar Kengashi tomonidan ma’qullangan va “Psixologlar etikasi tamoyillari universal deklaratsiyasi” asosida tuzilgan. Ushbu hujjatga ko’ra quyidagilar ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning asosiy vazifalari etib belgilangan:

- psixologiya fani yutuqlari, innovatsion psixologik metodika va texnologiyalarni ta’lim jarayoni hamda psixologik amaliyotga tatbiq etish;
- ilg’or xorijiy va mahalliy tajribalar asosida psixologik-pedagogik tashxis tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali tatbiq etish;
- psixologik yo’nalishdagi o’quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- turli yosh davrlarida o‘quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish,
- ta’lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning shaxsini shakllanishida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy og‘ishlarning oldini olish;
- psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish ishlarini tubdan yaxshilash, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis, korreksion-rivojlantiruvchi, psixoprofilaktika va psixologik maslahat ishlari samaradorligini oshirish;
- pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, jamoa a‘zolarining hissiyemotsional holatlarini, shaxslararo munosabatlarni va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;
- ta’lim jarayoni barcha subyektlarining psixologik salomatligini muhofaza qilish, o‘quvchilar va pedagogic jamoalarda, o‘quvchilar oilalarida sog‘lom psixologik muhitni saqlash bo‘yicha choralar belgilash, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning eng maqbul yechimlarini topish, aniqlangan muammolarni hal etishda amaliy yordam ko‘rsatish;

Ta’lim tizimi muassasalarida psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘ladi: psixologik ma’rifat va tashviqot; psixologik-pedagogik tashxis; psixologik profilaktika; psixologik korreksiya; psixologik maslahat; fan va kasbga yo‘naltirish.

Psixologik ta’lim xizmatlarini saqlash, yo‘q qilib tashlash mumkin emas. Psixologik ta’lim xizmatlarining iste’molchisi bo‘lgan insonning o‘zlashtirgan bilimi uning miyasida saqlanadi va uni yo‘qotib bo‘lmaydi. Ushbu bilimlar yillar o‘tib borishi bilan ko‘payib boradi. Biroq bilimlar tez eskirishga moyildir.

Psixologik ta’lim xizmatlarining individual tavsifga ega ekanligi uning yana bir belgisidir. Psixologik ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish ijodiy jarayon bo‘lib, uni xizmat ko‘rsatayotgan sub’ektlardan ajratib bo‘lmaydi. Bilim berishning turli uslublari mavjud. SHu nuqtai nazardan ular individual tavsifga egadirlar. Demak, sifat nuqtai nazaridan psixologik ta’lim xizmatlari bir- biridan farq qiladi.

Psixologik ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish va iste’mol qilish jarayoning bir vaqtning o‘zida ro‘y berishi psixologik ta’lim xizmatlarining yana bir belgisidir. Moddiy ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulot va uni ayirboshlash orqali iste’mol qilish o‘rtasida ma’lum vaqt mavjud bo‘ladi, ta’lim tizimida esa xizmatlar bir vaqtning o‘zida ham ko‘rsatiladi va iste’mol qilinadi. Masalan, psixologik ta’lim xizmatlarining u yoki bu turiga talabning oshib ketishi natijasida ularni omborxonalarda saqlab, tegishli vaqtda iste’molchiga tezkorlik bilan etkazib berib bo‘lmaydi.

Ma’lumki bozor iqtisodiyoti sharoiti zamonaviy iktisodchi kadrlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonning o‘ziga xos tarafi shundan iboratki psixologik ta’lim xizmatlari ko‘rsatlayotgan davrda pedagoglar bilan bir vaqtda talabalar ham mehnat qilishlari lozim bo‘ladi. Shu bois, o‘quv jarayonida berilgan bilimning hajmi va yangi psixologik ta’lim xizmatlari miqdori o‘rtasida, u tamom bo‘lgan vaqtdagi iste’molchi olgan bilim hajmi, ya’ni bilimga qilingan harajatlar qiymati va olingan bilim qiymati har doim ham teng bo‘lmaydi. Xuddi ana shu holat psixologik ta’lim xizmatlarining yana bir belgisi bo‘lib hisoblanadi.

Psixologik ta'lim xizmatlarining keyingi o'ziga xos belgisi bu inson va jamiyatning undan oladigan samarasini miqdor jihatidan baholashning qiyinligi, natijalarining tezda namoyon bo'lmashligi va ularning tashqi omillarga bog'liq ekanligi.

Xaqiqatdan, ta'limga qilingan harajatlar va olinadigan daromadlar o'rtasida ma'lum davr bor, shuning uchun ham, inson kapitaliga baho berilganda unga sarflangan xarajatlardan olinadigan daromadlarni inobatga olish zarur.

Psixologik ta'lim xizmatlariga talabning yuqorilik darajasi ham bu xizmatlarning o'ziga xos xususiyati bo'lib hisoblanadi. Iste'molchilar psixologik ta'lim xizmatlariga harajatlarini ongli ravishda qisqartirishlari mumkin. Chunki, majburiy o'qishdan keyin iste'molchilar, masalan oliy o'quv yurtida o'qishga ketadigan harajatlarni o'qimasdan ishlaganlarida topgan daromadlari yoki qo'ldan boy bergan daromadlari bilan, taqqoslaydilar.

Psixologik xizmatlarni amalga oshirish harajatni talab etadi. Bugungi kunda bizning fikrimizcha bozor munosabatlari sharoitida «tekin o'qitish» degan tushunchani aniqlashtirish va yangicha talqin etish maqsadga muvofiq. Psixologik ta'lim xizmatlarining bepul ko'rsatilishi faqat iste'molchi nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqdir. Biroq jamiyat nuqtai nazaridan unga davlat byudjeti orqali mablag'lar sarflanadi. Demak, makroiqtisodiy nuqtai nazaridan psixologik ta'lim xizmatlari bepul ko'rsatiladi deyishimiz noto'g'ridir. Oliy ta'lim tizimida davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar ham haq evaziga tahsil oladilar, biroq ushbu psixologik ta'lim xizmatlarini iste'molchi (talaba) emas balki davlat sotib oladi.

Shu bilan birga yalpi ichki mahsulot harajatlar uslubida hisoblaganida unda davlat tomonidan sotib olingan tovarlar va xizmatlarga qilingan harajatlar moddasi mavjud. Demak, ijtimoiy ne'mat deb yuritiladigan psixologik ta'lim xizmatlarini esa «bilvosita psixologik ta'lim xizmatlari», xususiy ne'mat sifatidagi psixologik ta'lim xizmatlarini «bevosita psixologik ta'lim xizmatlari» deb talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Bilimlarning asosini tashkil etuvchi psixologik ta'lim xizmatlarining, ijtimoiy ne'mat sifatida cheklanmaganligi ya'ni salohiyatining cheksizligi, foydalangan sari ularning kamaymasligi mazkur xizmatlarning o'ziga xos xususiyatini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish resurslari esa aksincha cheklangan bo'lib, iste'mol qilinishi jarayonida ular kamayib boradilar. Demak, ta'lim tizimining «mahsuloti» imkoniyat nuqtai nazaridan cheksiz bo'lib hisoblanadi. Binobarin, psixologik ta'lim xizmatlari bozoridagi ta'lim muassasalari o'zlarining xizmatlarini cheklanmagan hajmda amalga oshirish imkoniyatiga egadirlar. Cheklanish iste'molchilarning soni bo'yicha mavjud bo'lishi mumkin. Ma'lumki, resurslar qanchalik cheklangan bo'lsa ularning qiymati shunchalik yuqori bo'ladi. Bilimlarga nisbatan bunday bog'liqlik mavjud emas. Ko'pchilik hollarda bilimlarni tarqatish hajmlari ularning qiymatidan yuqori bo'ladi. Ushbu holat jamiyatni axborotlashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, psixologik ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- har xil ne'mat turlariga tegishli ekanligi;
- ne'mat sifatida cheklanmaganligi;

- iste'mol qiymatiga egaligi, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni qondiruvchi xizmatlar o'ziga xos tovar ekanligi (moddiy tavsifga ega emasligi, tashish, saqlash va yo'q qilib tashlashning mumkin emasligi);

- Psixologik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va iste'mol qilish jarayonining bir vaqtning o'zida berishi;

- iste'molchilarning Psixologik ta'lim xizmatlarining ko'rsatilishi jarayonida bevosita ishtirok etishi;

- ta'limga sarflanadigan xarajatlardan oladigan samarani miqdor jihatidan baholashning qiyinligi;

- Psixologik ta'lim xizmatlariga talabning yuqori darajada egiluvchan ekanligi.

Bizning fikrimizcha, aynan iqtisodiy va pedagogik nazariya nuqtai nazaridan psixologik ta'lim xizmatlari kadrlar tayyorlashning ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida PF - 4947. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami 70-modda.

2. <https://www.tatyana.cottle@gmail.com>

3. «Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимида психологик хизмат тўғрисида»ги муваққат Низом. – Т., 2002 йил 1 август

4. Qodirov O.S. Umumiy psixologiya // O'quv qo'llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.

5. Suyunov O.J. Using the basis of pedagogical skills in organizing the educational process // Научный журнал «архивариус» Том 7, № 4 (58)/2022 ISSN 2524-0935, Kiev-2022.

6. Suyunov O.J. Инновации-залог успешности деятельности организации //Jurnal Science and innovation.11.12.2022DOI:<https://doi.org/10.5281/zenodo.74241491>.

7. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994. - B.309.

8. Qodirov O.S. “O'smirlarda deviant xulq-atvor profilaktikasida samarali psixologik texnologiyalar (jinoyat motivlari misolida)” // Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2025, - 216 b.

9. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, Samarqand, SamDU nashriyoti. 2023.-346 b.

10. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov, F.U.Raxmatov, A.M.Shonazarov. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi //Darslik. - Samarqand, SamDU nashriyoti. 2025.- 468 b.

11. Feldshteyn D.I. “Общие вопросы образования” Образование и наука. 2013. № 9 (108).

<http://www.psychology-online.net>

<http://www.psychol-ok.ru/library/html>

<http://www.koob.ru>